

ESHITISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALALAR OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Rahmatova Shirin Nig'mon qizi

Surdopedagogika va inklyuziv ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Mirsobitova Lobar Mirziyod qizi

Surdopedagogika va inklyuziv ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada innovatsion texnologiyalardan foydalanishning eshitishida muammolari bo'lgan bolalar og'zaki nutqi rivojlanishida tutgan o'rnini yoritilgan.

Аннотация: В статье освещена роль использования инновационных технологий в развитии устной речи детей с нарушениями слуха.

Abstract: The article highlights the role of the use of innovative technologies in the development of oral speech of children with hearing problems.

Kalit so'zlar: Vital, falset, interaktiv doska va parta, sensor ko'zgu.

Ключевые слова: Витал, фальцет, интерактивная доска и письменный стол, сенсорное зеркало.

Key words: Vital, falsetto, interactive whiteboard and desk, touch mirror.

Eshitish idroki yordamida bolalarda atrofdagilar nutqiga taqlidan og'zaki nutq shakllanadi. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarda esa eshitish qobiliyati qachon va nima sababdan yo'qotilgani hamda eshitish oz miqdorda saqlanganligi yoki kamdan-kam holatlarda umuman bo'lmasligi tufayli ularning og'zaki nutqini shakllantirish maxsus individual yondoshuv talab qiladi. Bu borada L.S.Vigotskiy bola hayotini shunday tashkil etish kerakki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, aksincha bu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim. Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish lozim, shundagina nutq paydo bo'ladi degan edi.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar og'zaki nutqini rivojlantirish 5 bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) Nafas ustida ishlash;
- 2) Modullashtirilgan ovoz ustida ishlash;
- 3) Tovushlar talaffuzi ustida ishlash;
- 4) So'z ustida ishlash;
- 5) Jumlar ustida ishlash.

Nutqiy nafas ustida ishlash vazifasi kar va zaif eshituvchi bolalarda nafasdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi bilan ishlash, bir nafasda qisqa so'z va jummalarni talaffuz

qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarga vital nafas olish turi xos bo'lib, uni bartaraf etish uchun hozirgi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'yin shaklidagi tayyorlov mashqlaridan foydalaniladi.

Ovoz ustida ishlash vazifasi bolalarda normal ovoz kuchi va normal ovoz tembrida ovoz malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ovoz nuqsonlari 3 turga bo'linadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshitish darajasiga ko'ra baland, past va falset ovoz nuqsonlari uchraydi. Eshituv qoldig'iga ega bo'lgan bolalarda baqiroq ovoz nuqsoni uchraydi. A, U, I unlilarini cho'zib talaffuz qilish ovoz jarangdorligini oshirishga yordam beradi. Falset ovoz nuqsoni yoqimsiz chiyillagan ovoz bo'lib ko'pincha o'g'il bolalarda balog'atga yetish davrida kuzatiladi.

Tovushlar talaffuzi ustida ishlashdan avval nafas, ovoz va artikulyatsion mashqlarni eshitishida muammolari bo'lgan bolalarga bajartirish ularning nutq apparatini tovushlar talaffuziga tayyorlashga xizmat qiladi. So'ng ular nutqiga og'zaki nutqining tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladigan tovushlar ma'lum bir ketma-ketlikda nutqga qo'yiladi, so'z va jumalarda mustahkamlanadi hamda o'xshash tovushlar bilan differensiyalanadi.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishning barcha bosqichlarida ko'p funksiyali interaktiv doska va parta hamda sensor ko'zgulardan foydalanish birinchi navbatda bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otib bola diqqatini mashg'ulotga qaratadi va bola bilish jarayonlarini rivojlantiradi, yangi materialni o'zlashtirishiga yordam beradi, samarali ta'lim tizimini yaratishda axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan hamohang ravishda pedagogik hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bevosita ham pedagoglarning AKT, IT va PT bo'yicha kompetentligini, ham eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning kompyuter savodxonligi oshirishga xizmat qiladi. Ulardan foydalanish charchoq va quvvatsizlikni yo'qotadi, o'z qobiliyati va iqtidorini namoyish qilish, mustaqil harakat qilishi, hamkorlik qilish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi, muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, insonlar bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi, o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantiradi, obrazli tafakkur va kreativ fikrlashni rivojlantiradi, nutq hamda kognitiv qobiliyatlarni shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyalardan interfaol metodlar o'quvchilar hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantiradi, interaktiv o'qitish metodi esa muammoli vaziyatni hal etish uchun o'quvchilar o'rtasida munozara, erkin fikr almashinuvini tashkil etish usuli bo'lib, interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilar hozirjavoblikka o'rganadi, ularning lug'at boyligi ko'payadi, ilmiy-nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi va darsga qiziqishini orttiradi hamda intilishiga olib keladi.

Multimedia bu AKTning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:

d) ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

e) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganida amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

f) hozirgi globallashuv jarayonida bolalar rangli o'yinchoqlarga emas, balki gadjetlarga bog'lanib qolgani tufayli bunday texnologiyalarni pedagoglar tomonidan yakka va frontal mashg'ulotlarga tadbiiq etilishi bolalarda bilim olish, og'zaki nutqda muloqot qilish uchun motiv uyg'otadi.

Shunday qilib, Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirish uchun pedagoglar dars yoki mashg'ulot o'tish jarayonida AKT, pedagogik texnologiyalar va innavatsion texnologiyalardan foydalansa natija kutilgandan samarali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mamarajabova Z.N. Ona tili o'qitish maxsus metodikasi. Darslik. Toshkent-2019. 95-98-b.

2. Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). O'quv qo'llanma - T- 2020.

3. Mo'minova L.R, Amirsaidova Sh.M, Mamarajabova Z.N, Xamidova M.U, Yakubjanova D.B, Djalolova Z.M, Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti. – T - 2013.

4. Pulatova S.M. Surdopsixologiya. O'quv-uslubiy majmua – T - 2021.

5. Xamidova M.U, Mamarajabova Z.N, Yakubjanova D.B. Surdopsixologiya. O'quv-uslubiy qo'llanma.- T - 2007.

6. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika. O'quv qo'llanma - T: "Fan va texnologiya". 2018.